



e-ISSN: 2319-8753 | p-ISSN: 2347-6710

IJIRSET

International Journal of Innovative Research in
SCIENCE | ENGINEERING | TECHNOLOGY



INTERNATIONAL JOURNAL OF INNOVATIVE RESEARCH

IN SCIENCE | ENGINEERING | TECHNOLOGY

Volume 11, Issue 4, April 2022

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INDIA

Impact Factor: 8.118



9940 572 462



6381 907 438



ijirset@gmail.com



www.ijirset.com

The Need to Develop the Political Education Skills of Future Teachers

Akram Yoldashevich Otayev¹, Khodjamqulov Umid Negmatovich²

Teacher of the Chirchik State Pedagogical Institute, Uzbekistan.¹

Doctor of Science in Pedagogical Sciences (DSc), Chirchik State Pedagogical Institute, Uzbekistan.²

ABSTRACT: In this article focuses on the need to develop skills of political education in future teachers and provides methodological recommendations on the problem.

KEYWORDS: teacher, political, education, knowledge, skills, development, necessity, society, student, result

BO'LAJAK O'QITUVCHILAR SIYOSIY TARBIYA KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI

O'tayev Akram Yo'ldoshevich¹

Toshkent viloyati Chirchiq Davlat pedagogika instituti o'qituvchisi, O'zbekiston Respublikasi¹

Xodjamqulov Umid Negmatovich²

Pedagogika fanlari bo'yicha fan doktori (DSc)

Toshkent viloyati Chirchiq Davlat pedagogika instituti, O'zbekiston Respublikasi²

Аннотация: ушбу мақолада бўлажак ўқитувчиларда сиёсий тарбия кўникмасини ривожлантириш зарурияти ҳақида фикр юритилади ва муаммо бўйича методик tavsiyalar берилган.

Калит сўзлар: ўқитувчи, сиёсий, тарбия, билим, кўникма, ривожлантириш, зарурият, жамият, талаба, натижа, самара.

НЕОБХОДИМОСТЬ РАЗВИТИЯ ПОЛИТООБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ НАВЫКОВ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Утаев Акрам Йўлдашевич¹

Преподаватель Чирчикский государственный педагогический институт¹

Ходжамқулов Умид Негматович²

Доктор педагогических наук (DSc) Чирчикский государственный педагогический институт²

Аннотация: в статье размышлено о развитие навыка политического развития будущих учителей и дано методическое рекомендации по данному вопросу

Ключевые слова: учитель, политический, воспитание, знания, навыки, развитие, необходимость, общество, студент, результат.

Jahon hamjamiyatida siyosiy jarayonlarning keskinlashib borayotganligi va globallashuvning tobora jadallashuvi kishilarda siyosiy tarbiya va siyosiy madaniyat borasidagi bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarga bo'lgan intellektual ehtiyojni yanada kuchaytirmoqda. Siyosiy tarbiya va madaniyatga ega insongina dunyoda sodir bo'layotgan jarayonlarni to'g'ri tahlil qila olishi hamda voqeliklarga nisbatan o'z shaxsiy munosabati va pozitsiyasini namoyon eta olishi mumkin. Yoshlarning siyosiy jihatdan shaxsiy fikrga ega bo'lishi jamiyatning umumiy saviyasini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bunday sharoitda jahon mamlakatlarida ong va tafakkurida milliy qadriyatlarga nisbatan chuqur e'tiqod va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat shakllangan, o'z xalqi va vatanini sevadigan, siyosiy tarbiya va madaniyatga ega fuqarolarni tarbiyalash masalasiga ilmiy nuqtai nazardan yondashish, unga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq qilish va oqilona mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur jarayonda xalqaro baholash dasturlari asosida jahon mamlakatlarida umumiydashgan ta'lim jarayonini amalga

oshirishga e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, PISA halqaro baholash ta'lim dasturi asosida ta'lim oluvchilarni zamonaviy tarbiyalash ishini amalga oshirish va bu jarayonda ularning siyosiy tarbiya ko'nikmasini bugungi kun talablari asosida tarkib toptirish jarayoni kechmoqda [1].

Dunyo mamlakatlarida talaba - yoshlarning siyosiy tarbiya ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaviy va didaktik tizimni takomillashtirish, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida yoshlarning siyosiy savodxonligini qaror toptirishning samarali usul va vositalarini ishlab chiqish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Siyosiy tarbiya ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni ko'p bosqichli va uzoq muddatli jarayon ekanligi ta'lim turlari o'rtasida mavzu borasida integratsiyaga asoslangan munosabatlar tizimini shakllantirish lozimligini ko'rsatmoqda. Dunyoda kuzatilayotgan globallashuv jarayonlari, mamlakatlarning geosiyosiy jarayonlardagi ishtirokining o'zgaruvchanligi, rivojlanishda kuzatilayotgan manfaatlar to'qnashuvi kabi omillar mazkur muammoning dolzarbligini orttiradi va unga nisbatan ilmiy dunyoqarash, pedagogik yondashuv va amaliy munosabatni qaror toptirishni taqozo qilmoqda. Chunki siyosiy tarbiya ko'nikmasi bo'lajak o'qituvchilarning siyosiy, ijtimoiy va pedagogik jihatlaridan faol bo'lishi asoslaridan biri hisoblanadi[2].

Mamlakatimizda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va integratsiyaga asoslangan ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish sifatini oshirish, zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlar tayyorlash tizimini qaror toptirish, o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarning real hayotiy vaziyatlarda qo'l kelishiga erishish, ta'lim mazmunining hayotiy ahamiyatini oshirish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Yoshlarda siyosiy tarbiya ko'nikmasini shakllantirish masalasi ijtimoiy-gumanitar fanlar majmuiga kiruvchi predmetlar mazmuniga singdirilgan masalalardan hisoblanadi. Shu jihatdan "yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharaflari va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish"ning mavjud pedagogik-psixologik shart-sharoitlarini aniqlashtirish va unga nisbatan ilmiy yondashuvni qaror toptirish vositasida samaradorligini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda[3].

Mamlakatimizda tarbiya turlari, xususan, siyosiy tarbiya ko'nikmalarini shakllantirish, uning siyosiy ong, siyosiy bilim, siyosiy madaniyat kabi tushunchalar bilan o'zaro dialektik aloqadorligi, tarbiyaviy ishlar metodikasi kabi masalalar pedagogik olimlarimiz tomonidan tadqiq etib kelinmoqda. Bu borada B.Abdullaevaning o'quv fanlarini integratsiya asosida o'qitish, N.Azizxodjaevaning pedagogik texnologiyalar va ulardan foydalanish, R.Jo'raevning ta'limda komponentlikni ta'minlash, Sh.Mardonovning o'qituvchilar malakasini oshirishda tizimlilik, U.Maxkamovning o'quvchilar axloqiy madaniyatini shakllantirish va S.Turg'unovning ta'lim tizimini boshqarishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish masalalariga doir ilmiy-tadqiqotlarida ta'lim oluvchilarni tarbiyalash ko'nikmasini shakllantirishga doir o'ziga xos nazariy qarashlar bildirib o'tilgan. Mazkur nazariy qarashlar tadqiqotimizning nazariy-metodologik asosi sifatida qabul qilindi.

Xorijlik olimlardan B.Rosselning tadqiqotlarida ta'lim oluvchilarning siyosiy tarbiyalash, L.Rodjersning tadqiqotlarida ta'lim oluvchilarni siyosiy faollashtirish va K.Shletining tadqiqotlarida esa ta'lim oluvchilarni siyosiy faoliyatga tayyorlash texnologiyalari tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlardagi fikr-mulohazalar dissertatsiyamizning metodik yo'nalish asoslarini tashkil etdi.

Ayni paytda, bo'lajak o'qituvchilarda siyosiy tarbiya ko'nikmasini rivojlantirishning pedagogik asoslari maxsus dissertatsiya tarzida tadqiq etilgan emas. Shu sababli ushbu muammoni tadqiq etish dissertatsiyamizning asosiy mavzusi sifatida belgilandi. Chunki mamlakatimizning hozirgi yangi taraqqiyoti davrida o'qituvchilarning siyosiy faol bo'lishi va ular vositasida talim oluvchilarni siyosiy tarbiyalash zaruriyat bo'lib turibdi.

Shu jihatdan mazkur masalada quyidagi vazifalarni tadqiq etish zaruriyat hisoblanadi:

- bo'lajak o'qituvchilarda siyosiy tarbiya ko'nikmasini rivojlantirishning nazariy asoslarini o'rganish;
- bo'lajak o'qituvchilarda siyosiy tarbiya ko'nikmasini rivojlantirish tizimini tadqiq etish;
- bo'lajak o'qituvchilarda siyosiy tarbiya ko'nikmasini rivojlantirishning pedagogik asoslari samaradorligi bo'yicha tajriba-minov ishlari o'tkazish;
- bo'lajak o'qituvchilarda siyosiy tarbiya ko'nikmasini rivojlantirishning pedagogik asoslari bo'yicha nazariy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

Buning natijasida quyidagi ilmiy yangiliklarga erishish mumkin bo'ladi:

- bo'lajak o'qituvchilarda siyosiy tarbiya ko'nikmasini rivojlantirishning nazariy asoslari o'rganiladi;
- bo'lajak o'qituvchilarda siyosiy tarbiya ko'nikmasini rivojlantirish tizimi tadqiq etiladi;
- bo'lajak o'qituvchilarda siyosiy tarbiya ko'nikmasini rivojlantirishning pedagogik asoslari samaradorligi bo'yicha tajriba-minov ishlari o'tkaziladi.
- bo'lajak o'qituvchilarda siyosiy tarbiya ko'nikmasini rivojlantirishning pedagogik asoslari bo'yicha nazariy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqiladi.



Talabalar siyosiy tarbiyani tarbiya ko'nikmasini rivojlantirishning pedagogik zaruratlaridan yana biri jamiyatimizda demokratik qadriyatlarning chuqurlashib borayotganligi bilan izohlanadi. Bugungi kunda ijtimoiy hayotimizda inson, jamiyat va davlatning o'zaro manfaatdorligi kuchaydi, odamlar va ayniqsa, yoshlarda erkin yashash, erkin bilim olish, erkin fikrlash kabi demokratik qadriyatlar tarkib topdi, aniq va ideal orzu-maqсадlarga intilish hissi ortib bormoqda. Ayni paytda, yoshlar ongi va qalbini siyosiy befarqlik, xudbinlik, qat'iyatsizlik, adashuvchanlik, faolsizlik kabi illatlardan himoya qilish ko'lamini ham kengayib bormoqda. Misol uchun, voyaga yetgan yosh avlod saylov huquqidan chuqur xabardor bo'lishi kerak. Buning natijasida saylovlar jarayonlarini faollik bilan o'tkazish va unda siyosiy madaniyat va faollik bilan buzg'unchi va g'alamis kimsalar faoliyatiga siyosiy to'siq qo'yishga erishiladi. Demak, bularga erishish bo'lajak o'qituvchilar siyosiy madaniyatining rivojlanganlik darajasi, siyosiy tarbiya tamoyillariga asoslangan ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish kabi bir qator omillarga bog'liq ravishda kechadi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayoni talabalarda siyosiy tarbiya ko'nikmasini rivojlantirishning keyingi pedagogik zarurati ta'limning uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash bilan bog'liq. Tadqiqotchilarning fikricha, "...uzviylik mazmun, uzluksizlik shakl hodisasi hisoblanadi. Ya'ni, ta'lim mazmunining tabiiy ketma-ketligini ta'minlash, bunda bilim oluvchilarning yosh va fiziologik xususiyatlarini hisobga olish uzviylikni ta'minlaydi. Uzviylikmuayyan ta'lim turi doirasida ham, ta'lim turlariaro hamkuzatilishi mumkin. Uzluksizlik esa ta'lim turlarining o'zaro ketma-ketligida (yoki muayyan fan mazmunining yoritilishida) bo'shliqning bo'lmasligi bilan sodir bo'ladi. Uzviylik va uzluksizlik o'zaro bog'liq, mushtarak, ayni paytda, alohida hodisalar bo'lib, ularning ta'minlanishi ta'lim sifatiga bevosita aloqador va ta'lim turlari o'rtasidagi munosabatda bosh masala sifatida qaralmog'i lozim". Muttasil o'zgarib borayotgan jamiyatda inson ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarga moslashib borishi, yangi bilim, texnologiyalarni egallab borishi, ijtimoiy faol hamda harakatchan, yuksak kasbiy malakaga ega bo'lmog'i lozim. Ushbu omillar insonning jamiyatda o'z o'rnini egallashini belgilab beradi [4].

Shunday qilib bo'lajak o'qituvchilarda siyosiy tarbiya ko'nikmasini rivojlantirish zaruriyati va uning nazariy asoslari, tizimi hamda samaradorlik ko'lamini tadqiq etish zaruriyatbo'lib turibdi.

REFERENCES

1. O'tayev A. Talabalar siyosiy madaniyatini takomillashtirish omillari. "Муғаллим ҳам узлулсиз билимлендириу". - Нукус, № 2/1. 2021. - Б.132-136.
2. Bordovskaya N., Rean A. Pedagogika. –SPb., 2001
3. Xodjamqulov U. N. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri (Toshkent viloyati misolida). –T.: Universitet, 2020.
4. Qorayev S.B., Xusanova M.G. Professional ta'limda o'qituvchilarni kasb-hunarga tayyorlash masalalari. // International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology (IJIRSET). Volume 11, Issue 4, April 2022. - B.3393-3397



INNO  SPACE
SJIF Scientific Journal Impact Factor
Impact Factor: 8.118



ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INDIA



INTERNATIONAL JOURNAL OF INNOVATIVE RESEARCH

IN SCIENCE | ENGINEERING | TECHNOLOGY

 9940 572 462  6381 907 438  ijirset@gmail.com



www.ijirset.com

Scan to save the contact details